

Uzbekistan Airways "O'quv-mashg'ulot markazi" MCHJ ICAO LPRI TF/46 yig'ilishida ishtirok etdi

2025 19 May

"Uzbekistan Airways" O'quv-mashg'ulot markazi MCHJ vakillari Xorvatiya fuqaro aviatsiyasi agentligi ko'magida 2025-yil 14-16 may kunlari Xorvatiyaning Split shahrida bo'lib o'tgan IKAOning til tayyorgarligi talablarini (LPRI TF/46) amalga oshirish bo'yicha maqsadli guruhning 46-yig'ilishi va seminarida ishtirok etdilar.



Davlatimiz reytingchilarini faol ishtirokini faxr bilan ta'kidlaymiz:

- Inna Abdullayeva, maqsadli guruh raisi
- Lyudmila Savchenko, 2-kichik guruh a'zosi



Tadbir aviatsiya xodimlarining til tayyorgarligi sohasidagi eng ilg'or tajribalarni muhokama qilish uchun Yevropa, Markaziy Osiyo va Kavkazdan mutaxassislarni bir joyga to'pladi.

Tashkilotchilar va barcha ishtirokchilarga parvozlar xavfsizligi va aviatsiyada samarali muloqotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun minnatdorchilik bildiramiz.